



## QO'SHISH HADLARI

### Mamaturaimova Dilrabo

*Andijon viloyati asaka tumani*

*23-umumiy o'rta talim maktabi boshlang'ich sinfo'qtuvchisi*

Boshlang'ich ta'limda o'yin ijodiy faoliyatning bir shaklidir. Bunda o'quvchi ijtimoiy va moddiy borliqni bilish hamda anglash asosida emotsiyal - hissiy, intellektual-axloqiy rivojlanadi. O'yinlar, ularning inson taraqqiyotidagi o'rni haqida psixologiya, etnografiya, madaniyat, pedagogika fanlarida bir qator tadqiqot ishlari olib borilgan. XIX asrning oxirida nemis olimi K. Gross o'yinlarni tizimli o'rganishga xarakat qilgan bo'lsa, nemis psixologi K. Byuller o'yinlarni "qoniqish hosil qiluvchi" faoliyat sifatida tadqiq etadi. L.S. Vigotskiy, A.N. Leontyevlar fikricha, o'yinlarni nazariy jihatdan ijtimoy tabiatiga ko'ra ma'lum faoliyatiga yo'naltirilganligi bilan bog'lab, tadqiq etgan bo'lsalar, D.B. Elkonin shaxs xulqini boshqarishni tarkib toptirib, uni takomillashtiruvchi faoliyat sifatida talqin etadilar. Lekin o'yinlarni yagona va eng muhim asosiy xususiyati uning ta'limdagi ahamiyatliligidir. O'yinlarda bolaning xulqi erkin shakllanadi va ijtimoiylashadi. O'yinlarning eng muhim jihatni uning ikki tamonlama xarakterga egaligi bo'lib, uning dramatik san'atga ham mosligidir. Bir tamondan o'yin ishtirokchilari uni amalgam oshirishda muayyan nostandard vazifalar bilan bog'liq xaqiqiy faoliyatni bajarsalar, ikkinchi tamondan esa o'yinlar bu faoliyatning aksariyat paytlarida ma'suliyatni his etgan holda haqiqiy vaziyatlardan chetga chiquvchi shartli xususiyat ham kasb etadilar.

Boshlang'ich ta'lim davrida o'quvchilarning aqliy va jismoniy faoliyatini tashkil qilishda didaktik o'yinlar alohida ahamiyatga ega.

Nol bilan tugaydigan ikki xonali sonlami qo'shish va ayirishni ochib berishda bolalarga bunday sonlami qo'shish hamda ayirish bir xonali sonlarga o'xshash bajarilishini ko'rsatish kerak.

Masalan:  $60+20=$  yigindini topish uchun 6 o'nlikka 2 ta o'nlikni qo'shish yetarli.

$$60+20=?$$

$$70+10=?$$

$$6 \text{ o}'\text{n}l + 2 \text{ o}'\text{n}l = 8 \text{ o}'\text{n}l.$$

$$7 \text{ o}'\text{n}l - 4 \text{ o}'\text{n}l = 3 \text{ o}'\text{n}l$$

Boshlang'ich sinflarga arifmetik amallarni o'rgatish tushunchalarini berish va o'rgatishdagi usullarning eng foydalilaridan biri bu interfaol metodlarni qo'llagan holda o'rgatish hisoblanadi.

Interfaol metod - ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni oshirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo'llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol ta'limning asosiy mezonlari:



norasmiy bahs – munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, o'quvchilar tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, sinf jamoasi bo'lib ishslash uchun topshiriqlar berish vaboshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'lif – tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega.

Hozirda ta'lif metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'nalishlardan biri interfaol ta'lif va tarbiya usullarini joriy qilishdan iboratdir. Barcha fan o'qituvchilari shu jumladan boshlang'ich sinf o'qituvchilari ham dars mashg'ulotlari jarayonida interfaol metodlardan borgan sari keng ko'lamda foydalanmoqdalar.

Interfaol metodlarni qo'llash natijasida o'quvchilarni mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslangan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi.

Interfaol degani, o'qituvchi va o'quvchilar orasida o'zaro hamkorlik tufayli dars samaradorligini oshadi, yangi darsni o'quvchi mustaqil harakat, mulohaza, bahs-munozara orqali o'rganadi, qo'yilgan maqsadga mustaqil o'zi darsda o'quvchi faol ishtirok etgan holda kichik guruhlarda javob topishga harakat qiladi, ya'ni ham fikrlaydi, ham baholaydi, ham yozadi, ham gapiradi, ham tinglaydi, eng keragi o'zi faol ishtirok etadi. Interfaol usullarining negizidagi topshiriq mazmunini anglab yetgan o'quvchilar ta'lif jarayoniga o'zları bilmagan holda qiziqish bilan kirishib ketadilar. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida arifmetik amallarni o'rganish hamda og'zaki va yozma hisoblash ko'nikmalarini tarkib toptirish matematika fani dasturining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari arifmetik amal ma'nosini, uning hadlarini puxta o'rgangach, amal xossalarni ham o'rganib borishlari ularda hisoblash malakalari shakllanishiga asos bo'ladi. 1-sinf o'quv-chilari qo'shish va ayirish amallarining xossalarni o'rganishlari turli hisob usullarini o'rganishlari uchun asos bo'ladi. O'quvchilar qo'shishning o'rinn almashtirish xossasi bilan tanishishlari 10 ichida kichik songa katta sonni qo'shish (masalan,  $2 + 7$ ) ni bajarishlariga imkon tug'diradi.

Arifmetik amallarni o'rganishdan oldin bolalar ongiga uning ma'nosini, mazmunini yetkazish kerak. Bu vazifa turli hil amaliy ishlarni bajarish asosida o'tkaziladi. Masalan, "O'nlik" mavzusini qo'shish va ayirish amallarining ma'nosini 2 to'plam elementlarini birlashtirish va to'plamdan uning qismlarini ajratish kabi amaliy amallar yordamida olib boriladi. Ko'paytirishni uning komponentlari bilan natijasi orasidagi bog'lanishlarni o'rganish esa bo'lish amalini o'rganish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Arifmetik amallarni o'rganishda oldin o'quvchilar ongiga uning ma'nosini, mazmunini yetkazish kerak. Bu ish predmetlarning har xil to'plamlari bilan amaliy ishlar bajarish asosida o'tkaziladi. O'quvchilarni qo'shish va ayirish amallarining ma'nosini bilan tanishtirish ikki to'plam elementlarini birlashtirishga oid va berilgan to'plamdan uning qismlarini ajratish kabi amaliy munosabatlar orqali amalgalashishga imkon beradi.



oshiriladi. Qo'shish amali sonlarni ko'paytirish amallari uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ko'paytirish uning komponentlari bilan natijalari orasidagi bog'lanishlarni o'rganish o'z navbatida bo'lish amalini o'rganish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Arifmetik amallarni o'rganishdagi masalalardan biri og'zaki va yozma hisoblash usullarini ongli o'zlashtirish, hisoblash malaka va ko'nikmalarini shakllantirish bilan bog'liqdir. Og'zaki hisoblashlarning asosiy ko'nikmalari 1- va 2-sinflarda shakllanadi.

Og'zaki hisoblash usullari ham, yozma hisoblash usullari ham amallar xossalari va ulardan kelib chiqadigan natijalarni amallar komponentlari bilan natijalari orasidagi bog'lanishlarni bilganlikga asoslanadi.

Arifmetik amallarni o'rganishdagi muhim vazifa o'quvchilarda og'zaki va yozma hisoblash ko'nikmalarini shakllantirishdir. Og'zaki hisoblashlarning asosiy ko'nikmalari 1-2 sinflarda shakllanadi. Yozma hisoblash bilan o'quvchilar yuzlik mavzusida ikki xonali sonlarni qo'shish va ayirishni bajarish (2-sinf) jarayonida tanishishni boshlaydi. Bu hisoblash usuli 3-4 sinflarda to'rtala arifmetik amallarni bajarishni o'rganishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Shuni ta'kidlash o'rinniki, yozma hisoblashlarda og'zaki hisoblash ko'nikmalari takomillasha boradi, chunkiog'zaki hisoblashlar yozma hisoblash jarayoniga tarkibiy element sifatida kiradi.

Og'zaki hisoblash ko'nikmalariga ega bo'lish yozma hisoblashlarni muvaffaqiyatli bajarishni ta'minlaydi.

Og'zaki hisoblash usullari ham, yozma hisoblash usullari ham amal xossalari va ulardan kelib chiqadigan natijalarni amallar hadlari bilan natijalari orasidagi bog'lanishlarni bilganlikka asoslanadi. Bu ularning o'xshashlik sifatlari bo'lsa, ularning farqli jihatlari ham bor. Quyida ikkala hisoblash usulining bir-biridan farqlanadigan xususiyatlarini tahlil qilamiz:



<b>Og'zaki hisoblashlarda:</b>	<b>Yozma hisoblashlarda:</b>
<p>Hisoblashlar yozuvlarsiz (ya'ni miyada bajariladi) yoki yozuvlar bilan tushuntirib berishi mumkin. Bunda yechimlarni:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>a) tushuntirishlami to'la yozish bilan (ya'ni hisoblash usulini dastlabki mustah-kamlash bosqichida) berish mumkin. Masalan:</li> </ul> $34 + 3 = (30 + 4) + 3 = 30 + (4 + 3) = 30 + 7 = 37$ $8 + 5 = 8 + (2 + 3) = (8 + 2) + 3 = 10 + 3 = 13$ <ul style="list-style-type: none"> <li>b) berilganlarni va natijalarni yozish mumkin. Masalan: <math>34 + 3 = 37</math> <math>8 + 5 = 13</math></li> <li>c) hisoblash natijalarini raqamlab yozish mumkin. Masalan: 1) 37 2) 13</li> </ul>	<p>Hisoblashlar yozma bajariladi. Yozma hisoblashlarda yechimni yozish ustun qilib bajariladi. Masalan:</p> $  \begin{array}{r}  +45 \\  23 \\  \hline  68  \end{array}  $
<p>Hisoblashlar yuqori xona biriklaridan boshlab bajariladi. Masalan:</p> $240 - 120 = (200 + 40) - (100 + 20) = (200 - 100) + (40 - 20) = 100 + 20 = 120$	<p>Hisoblashlar quyi xona biriklaridan boshlanadi (yozma bo'shilish bundan mustasno).</p>
<p>Oraliq natijalar xotirada saqlanadi.</p>	<p>Oraliq natijalar darhol yoziladi.</p>
<p>Hisoblashlar har xil usullar bilan bajarilishi mumkin. Masalan:</p> $28 + 14 = 28 + (10 + 4) = (28 + 10) + 4 = 38 + 4 = 42$ $28 + 14 = (20 + 8) + 14 = (20 + 14) + 8 = 34 + 8 = 42$ $28 + 14 = 28 + (2 + 12) = (28 + 2) + 12 = 30 + 12 = 42$ $28 + 14 = (20 + 8) + (10 + 4) = (20 + 10) + (8 + 4) = 30 + 12 = 42$	<p>Hisoblashlar o'rnatilgan qoidalar bo'yicha, shu bilan birga yagona usul bilan bajariladi. Masalan:</p> $  \begin{array}{r}  \times 59 \\  \times 86 \\  \hline  354 \\  + 4720 \\  \hline  5074  \end{array}  $
<p>Amallar 10 ichida, 100 ichida, yengilroq hollarda 1000 ichida va ko'p xonali sonlar ustida hisoblashlarning og'zaki usullaridan foydalanib bajariladi.</p>	<p>100 ichida, 1000 ichida, ko'p xonali sonlar ustida amallar hisoblashlarning yozma usullaridan foydalaniib bajariladi. Masalan:</p>

Matematika darslarida didaktik o'yinlardan foydalanish o'quvchilar zehnini o'stirish, tez hisoblash ko'nikmalarini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Didaktik o'yinlar jarayonida o'quvchilar o'yin qoidalariga qat'iy rioya qilishga o'rganadilar, inoqlik his - tuyg'ulari, dunyoqarashlari shakllanib boradi.

Ta'lim jarayonida didaktik o'yinlar o'quvchilarning xususiyatiga ko'ra tashkil etilishi kerak. Bu esa ularga bilim berishni yengillashtirishga, ko'rgazmalilikni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, o'quvchilarni toliqtirmaslik, zeriktirmaslik imkonini yaratadi.

Didaktik o'yinlarni xilma-xil tarzlarda tashkil qilish mumkin. Qo'g'irchoqlar, o'yinchoqlar, rasmlar va tarqatmalar, turli geometrik shakllardan ham foydalanish mumkin. Didaktik o'yinlar maqsadiga ko'ra 4 omilni o'z ichiga oladi:



1. O'yining vazifasi. 2. O'yining harakati. 3. O'yining qoidasi. 4. O'yining yakuni.

Har bir didaktik o'yinni boshlashdan oldin o'quvchilarga o'yining qoidasi, mazmuni, yakuni nimadan iborat ekanini o'qituvchi tomonidan tushuntiriladi. O'quvchilar uni tushunib, anglab, shu asosda harakat qiladilar. Masalan, Ishoralar o'yini.

O'yining maqsadi: Bir amalli masalalarni og'zaki yechish ko'nikmalarini rivojlantirish.

O`yin jahozi: -+, + belgilari.

O'yining borishi:

O'qituvchi masalani o'qiydi, o'quvchilar esa masalani qaysi amal bilan yechish kerak bo'lsa o'sha "ishora"ni ko'rsatadilar.

Masala:

1. Salimning 2 ta qora va 4 ta qizil qalami bor. Hammasi bo'lib nechta qalami borligini qaysi amaldan foydalanib topamiz?

O'quvchilar "+" ni ko'rsatadilar. Masala og'zaki yechiladi.

2. Nigorada 6 daftar bor edi. 3 tasini ukasiga berdi. Nigorada nechta daftar qoldi?

Mustahkamlash: O'qituvchi "+", "-" qo'shish, ayirish belgilari qachon qo'yilishini so'rab, ularning bilimini mustahkamlaydi.

### **DIDAKTIK O'YINLARDAN NAMUNALAR**

Quyida matematika darslarida o'tkaziladigan ayrim didaktik o'yinlardan namunalar keltiriladi.

**"Jim" o'yini**

O'yining maqsadi: O'quvchilarning o'n ichida "+", "-" belgilari haqidagi bilim va malakalarini oshirish, sinash. O`yin guruhlarda o'ynaladi.

O`yin jahozi: Raqamiar yozilgan tarqatmalar, misollar, jadval.

O'yining borishi: Jadvallar doskaga osib qo'yiladi, doskaga bo'r bilan yoziladi. O`yin ovoz chigarmagan holda o'tkaziladi. O'qituvchi ko'rsatkich bilan 7 va 5 ni ko'rsatadi. O'quvchilar o'ylab 2 yozilgan tarqatmani ko'rsatadilar.

**"Bilmasvoyning xatolari" o'yini**

O'yining maqsadi: o'quvchilarning o'n ichida "+", "-" ishoralari haqidagi bilimlarini mustahkamlash, bilim va malakalarini, mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stirish.

O'yining borishi: Doskaga ifodalar yoziladi. Har bir qatordan bittadan o'quvchi doskaga chiqadi va xatolarini tuzatadi.

10-7=4

10-3=6

7-3=5



$3+2=6$

$4+3=8$

$4+1=6$

### "Kim epchil" o'yini.

O'yin maqsadi: Hozirjavoblik, topqirlik malakalarini oshirish.

O'yin jihizi: 2 ta savatcha ifodalar yozilgan olmalar 12-6; 2+8; 7+5; 4+8; 10-3 va hakozo.

Stol ustida "olmalar" yozib qo'yiladi. Doskaga 2 o'quvchi chiqadi. Stol ustidagi "olmalar"dagi ifodalarning natijalarini aytib savatga sola boshlaydilar. Ifodaning qiymatini to'g'ri topmagan o'quvchi ularni savatga sola olmaydi. Qaysi o'quvchi savatga ko'p "olma" tergan bo'lsa, o'sha o'quvchi g'olib bo'ladi.

### "Mohir hisobchi" o'yini.

O'yinning maqsadi: O'quvchilarda tez hisoblash malakalarini hosil qilish.

O'yin mazmuni:

Sinf taxtasiga uchta ustundan iborat to'rt amal qatnashgan misollar yoziladi. Men har bir guruhdan bittadan o'quvchini chiqaraman. Har bir o'quvchi tegishli ustundagi misolni yechadi. Qaysi o'quvchi oldin yechib bo'lsa, uning ishi tekshiriladi. Agar to'g'ri yechgan bo'lsa, **mohir hisobchi** hisoblanadi.



### **"Mohir hisobchi" o'yini.**



- Shoxda 10 ta qush bor edi, Dilshod beshinch qushni nishonga oldi. Shoxda nechta qush qoldi?











Eslatma: Kerakli o'rirlarda o'qituvchi tomonidan qo'shimcha ma'lumotlar ham kiritilish mumkin. Yuqorida qayd etilgan o'yin va topshiriqlar orqali o'quvchilarining barcha tafakkur operatsiyalari, hodisalarini har tamonlama tahlil qilish sabab, oqibat, bog'lanishlarni aniqlash jarayonida o'quvchilar faolligi yanada oshadi. Shu tariqa o'quvchilarda darslarga qiziqish hosil qilinadi.

#### Matematika darslarida Pazl ("Bo'laklardan butunni tuz") metodi.

Pazl (inglizcha puzzle – topishmoq, boshqotirma) – rasmni uning bo'laklari yordamida tiklashdan iborat bolalar o'yining nomi. SHuning uchun bu metod nomini o'zbek tilida "Bo'laklardan butunni tuz" deb ham atash mumkin. O'tilgan mavzuga oid asosiy jumla, formula, teorema, tenglama, chizma va boshqa ko'rinishidagi asosiy ma'lumotlar qog'ozga yozilib, so'ng bir nechta bo'laklarga bo'linib aralashtirib yuboriladi. O'quvchilar bu bo'laklar ichidan faqat bitta ma'lumotga moslarini topib, uni tiklaydilar.

Bu metod o'quvchilarda ziyraklik, topqirlik, diqqatni toplash, tahlil va sintez qilish kabi qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Uni yakka tartibda ham, sinfni guruhlarga bo'lib ham o'tkazish mumkin.

Demak, kichik maktab yoshida, o'yinlardan bolalarning o'quv va mehnat faoliyatini yengillashtiruvchi va tashkil etuvchi vosita sifatida foydalanish mumkin. Ta'lim jarayonida o'yin elementlari o'quvchilarda ijobiylar emotsiyalarni yuzaga keltirib, ularning faolligini oshiradi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar, o'yin tavsifiga ega, mehnatga taaluqli topshiriqlarni qiziqish bilan bajaradilar. O'yin faoliyati bolalarni ruhiy hayotining barcha tomonlarini shakllanishida, masalani qo'yilishida va harakatlanish usullarini tanlashda yordam beradi.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tolipov O', M.Usmonboyeva. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. T. 2015-yil.
2. Aliev A. O'quvchilarning ijodkorlik qobiliyati. -Toshkent: O'qituvchi, 2016.
- 3.. Boboyeva Yu.K. Hozirgi zamон umumiy ta'lim maktabida o'qitish metodlari. - Toshkent:O'qituvchi,2017